

TALABALARNING TABIATGA MA'SULIYATLI MUNOSABATDA BO'LISHLARIDA EKOLOGIK TA'LIM VA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING AHAMIYATI

Umidaxon Abdullayeva G'ulomiddinovna

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni tabiatga ma'suliyatli munosabatda bo'lishlarida ekologik ta'lif va tarbiya berishning ahamiyati xaqida batavsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Tabiat, ekologiya, ekologik ta'lif va ekologik tarbiya.

Mamlakatimizda atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta'minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bu borada o'tkazilgan tahlil natijalari atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat funksiyalarini amalga oshirishda kompleks yondashuv va strategik rejalshtirishning mavjud emasligi, shuningdek, qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish uchun tabiatni muhofaza qilish organining vakolatlari yetarli emasligidan dalolat beradi. Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'naliшlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi xududlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida **"2030-YILGACHA BO'LGAN DAVRDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA"** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, (30.10.2019 yil PF-5863-son) ishlab chiqildi. Ushbu kontsepsiya ekologiya sohasida ish olib borayotgan muhandislar, olimlar, pedagoglar, izlanuvchi magistrantlar va psixologlar oldiga bir qator vazifalarni yuklaydi.

Konsepsianing amalda to'g'ri bajarilishi natijasida biz quyidagilarga erishishimiz mumkin: Konsepsianing amalga oshirilishi natijasida 2030-yilda

Orol dengizining qurigan tubini O'zbekistondagi qismida o'rmonzorlar maydonini uning jami hududiga nisbatan 60 foizgacha yetkazish;

qishloq xo'jaligida suv resurslarini yo'qotishni 10 foizga kamaytirish;

qishloq xo'jaligida suv iste'molini (solishtirma gektarga nisbatan)

15 foizga kamaytirish;

oqava suvlarini tozalash samaradorligini 80 foizgacha oshirish;

atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini 10 foizga kamaytirish;

transport vositalarining 80 foizini metan yoki propan yoqilg'isi va elektr energiyasida ishslashga o'tkazish;

o'rmonzorlar bilan qoplangan o'rmon fondi hududini 4,5 mln gektargacha kengaytirish;

IV toifadagi qo'riqlanadigan tabiiy hududlar maydonini 12 foizgacha kengaytirish; Qizil kitobga kiritilgan va pitomniklarda parvarish qilingan chiroyli tuvaloqlarni tabiatga qo'yib yuborishni yiliga 4000 gacha ko'paytirish;

aholini qattiq maishiy chiqindilarni toplash va olib ketish xizmatlari bilan 100 foiz qamrab olish;

hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini
65 foizgacha ko'paytirish;

alohida xususiyatga ega chiqindilar (tarkibida simob bo'lgan chiqindilar, avtoshinalar, akkumulyatorlar, ishlatib bo'lingan moylar, qadoqlar chiqindilari va boshqalar)ni qayta ishlash hajmini 30 foizgacha ko'paytirish kutilmoqda.

Mamlakatimizda qabul qilinayotgan qaror va farmonlar ijrosini ta'minlash maqsadida har bir ongli inson o'z oldiga ekologiyani saqlab qolish undan to'g'ri maqsadlarda foydalanish kabi vazifani qo'ymog'i lozim. Buning uchun avvalo quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz. (Farg'ona shahri misolida.)

1.Farg'ona shahri ichiga yuk avtomashinalarini kirishi va harakatini cheklash, halqa yo'llarini kengaytirish;

2. Farg'ona shahri markazida yagona ekologiya ilmiy markazini tashkil etish, tabiatni muxofaza qilish qo'mitasi, sanitariya-epidemiologiya markazlari, gidrometeorologiya markazi hamda oliy o'quv yurtlari ilmiy laboratoriyalari bilan uzviy bog'liqlikni yo'lga qo'yish;

3. Farg'ona viloyati atmosfera xavosi, tuprog'i, suv xavzalarini sistemali monitoring qilishni amalga oshirish;

4.Aholi, maktablar, oliy o'quv yurtlarida ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyatni shakllantirish borasida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini sistemali yo'lga qo'yish;[1,40-43 bet]

5.Atrof muhit tozaligi to'g'risida keng jamoatchilikka ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlar berib borish;

6.Chiqindi suvlarini tozalash uchun suv tozalash inshootlarini xajmini oshirish;

7.Kimyo darslarida mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holatda ekologik ta'lim va ekologik tarbiyaning ahamiyatini sistemali olib borish;

8.Ekologik ta'lim va ekologik tarbiyaning mohiyatini to'la ochib berish;

9.Maktab va oliy o'quv yurtlari pedagoglariga ekologik ta'lim va ekologik tarbiya berish yo'llarini ishlab chiqish va kengaytirish.

Masalan, Kimyo darslarida Uglerod va uning birikmalari mavzusini o'rganuvchilarga chuqur singdirishda turli ekologik mazmundagi ma'lumotlarni berish orqali amalga oshiriladi. Har yili atmosferaga 4 mln tonnaga yaqin zararli moddalar tashlanadi, shularning yarmi Uglerod oksidlariga, 15% uglevodorod chiqindilariga, 14% Oltingugurt oksidlariga, 9% Azot oksidlariga, 8% qattiq moddalarga, 4% ga yaqini o'ziga hos o'tkir zaxarli moddalarga to'g'ri keladi. Metallar, qotishmalar, metallar korroziyasi mavzusi o'rganilayotganda metallar va ular birikmalarining atrof-muhitga ta'siri, og'ir metallar bilan biologik manbalarni ifloslanishi kabi tushunchalar berib boriladi. Bitta yengil avtomobil yil davomida havoga 1 kg Qo'rg'oshin birikmalarini chiqarishi mumkin. Og'ir metallar inson

organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Cho'yan va po'lat eritish jarayonida atmosferaga bir necha xil gazlar ajralib chiqadi. Masalan, 1 tonna cho'yan ishlab chiqarish uchun atmosferaga 4,5 kg chang, 2,7 kg SO₂, 0,1-0,6 kg marganes birikmalari ajraladi. Shuning uchun metallarni isrof qilmaslik, metallar yig'ish, ularni vaqtida topshirish, ishchi xodimlarni ekologik madaniyatini rivojlantirish, zavod va korxonalar atrofini ko'kalamzorlashtirish, himoya zonalarini tashkil etish lozim.

Atrof muhitni muhofaza qilishni nazarda tutib oilada, barcha ta'lim dargohlarida, mahallalarda, jamoat joylarida ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish, undagi mavjud tiriklikni avaylab asrash, vatan ravnaqi, el-yurt obodligi va farovonligi yo'lida fidoiylik bilan mehnat qilish zarurdir.